



# UCHINCHI SINF O'QISH SAVODXONLIGI DARSLIKLARI

## TARKIBIDAGI JAHON ADABIYOTI NAMUNALARI TAVSIFI

*Norboyeva Gulshan Vahob qizi*

*O'zbekiston-Finlandiya Pedagogika instituti talabasi*

*Tojiyeva Xolida Baxtiyorovna*

*Ilmiy rahbar*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada uchinchi sinf o'qish savodxonligi darsliklari tarkibidagi jahon adabiyoti namunalarining tavsifi va ulaning o'quvchilarga ta'siri yoritilgan.Jahon adabiyotining eng mashhur yozuvchilari:Roald Dahl,Janni Rodari, Lev Nikolayevich Tolstoylarning bolalar uchun yozgan asarlari va ular orqali berilayotgan tarbiyaviy g'oyalalar tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:**Uchinchi sinf,o'qish savodxonligi,jahon adabiyoti,Roald Dahl,Janni Rodari,Lev Nikolayevich Tolstoy,bolalar adabiyoti,tarbiya,bilim, «Oyog'i osmondan bo'lgan sichqonlar » zukkolik,,tafakkur, "Hunarning hidi qanaqa?", mehnat,ta'lim,ijodiy fikrlash, "Filippok", pedagogika.

Uchinchi sinf o'qish savodxonligi darsliklarida jahon adabiyotining turli namunalari kiritilgan bo'lib,ular o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish va adabiyotga qiziqishini oshirishga xizmat qiladi.Bunga misol qilib Jahon adabiyoti namoyondalaridan Roald Dalning hayoti va ijodi haqida to'xtalib o'tamiz va keyin uning «**Oyog'i osmondan bo'lgan sichqonlar**» asarini ko'rib chiqamiz.

«**Roald Dahl** (talaffuzi: *Roald Dal* 1916-yil 13-sentyabr — 1990-yil 23-noyabr) asli norvegiyalik ingliz yozuvchisi, qissanavis, shoir, ssenariynavis va urush davri giruvchi uchuvchisi edi»<sup>1</sup>. Uning kitoblari butun dunyo bo'ylab 250 million nusxadan ortiq sotilgan. Dal „XX asr bolalari uchun eng buyuk yozuvchilardan biri“

<sup>1</sup> ↑ "Roald Dahl British author". *Encyclopædia Britannica*. Qaraldi: 2022-03-02.



sifatida tan olingan. Uning „Charli va shokolad fabrikasi“, „Matilda“, „Bahaybat va mehribon dev“ kabi asarlari o‘zbek tilida chop etilgan.

Dal Uelsda norvegiyalik badavlat muhojirlar oilasida tug‘ilgan va umrining asosiy qismini Angliyada o‘tkazgan. Ikkinci jahon urushi paytida Qirollik havo kuchlarida (RAF) xizmat qilgan. U dastlab qiruvchi uchuvchi, keyinchalik razvedkachi bo‘lib, qanot qo‘mondoni vazifasini bajaruvchi darajasigacha ko‘tarildi. Yozuvchi sifatida 1940-yillarda bolalar va kattalar uchun yozilgan asarlari orqali tanilib, dunyodagi eng xaridorgir mualliflardan biriga aylandi. Adabiyotga qo‘sghan hissasi uchun mukofotlari orasida 1983-yilda World Fantasy Award for Life Achievement va 1990-yilda British Book Awards tomonidan yilning eng yaxshi bolalar muallifi kabi nufuzli mukofotlar bor. Dal va uning asarlari irqiy stereotiplar, misoginiya va antisemitizm uchun tanqidga olingan, keyinchalik uni taniganlar tomonidan norozilik bildirilgan. «2008-yilda The Times Dalni „1945-yildan beri 50ta eng buyuk britaniyalik yozuvchilar“ ro‘yxatida 16-o‘ringa qo‘ydi. 2021-yilda Forbes uni top-earning dead celebrity (eng ko‘p daromad topuvchi vafotgan etgan mashhurlar) reytingiga kiritdi.»<sup>2</sup>

«Dalning hikoyalari kutilmagan yakun bilan, bolalar uchun kitoblari esa go‘dak qahramonlarning yovuz dushmanlari aks ettirilgan g‘ayrioddiy, dahshatli, ko‘pincha qora yumorga boy kayfiyati bilan mashhur.»<sup>3</sup> Uning bolalar uchun yozgan asarlarida mehribon insonlar ulug‘lanadi va iliq tuyg‘ular tarannum etiladi. Uning *Jeyms va ulkan shaftoli*, *Charli va shokolad fabrikasi*, *Matilda*, *Jodugarlar*, *Fantastic Mr Fox*, *The BFG*, *The Twits*, *Giraffe and The Pelly and Me* va *George’s Marvellous Medicine* kabi bolalarga bag‘ishlangan mashur asarlari bor. *Kutilmagan ertaklar* nomli asari esa kattalar uchun yozilgan kitoblari sirasiga kiradi.

**“Oyog‘i osmondan bo‘lgan sichqonlar” asarining tavsifi va tarbiyaviy ahamiyati:**

<sup>2</sup> Freeman. „The Highest-Paid Dead Celebrities 2021“. *Forbes* (2021-yil 30-oktyabr). Qaraldi: 2022-yil 10-iyul.

<sup>3</sup> Hamlin 2015.



"Oyog‘i osmondan bo‘lgan sichqonlar" hikoyasi Levon ismli qariyaning aql va zukkolik bilan sichqonlarni o‘z uyidan qanday haydaganini tasvirlaydi.

87 yoshli Levon kambag‘al bo‘lsa-da, hayotdan mamnun inson. U sichqonlarning uyida paydo bo‘lishiga dastlab ahamiyat bermaydi, ammo ularning soni ko‘paygach, bu holat uni bezovta qila boshlaydi. Sichqonlarni oddiy usullar bilan qo‘rqita olmasligini anglagan Levon, o‘zining zukkoligi bilan muammoni hal qilishga harakat qiladi.

U sichqonlarni chalg‘itish maqsadida, xonadagi barcha narsalarni – stol, stul, gilam va boshqa buyumlarni shiftga yopishtiradi. Sichqonlar bu manzarani ko‘rib, pol va shift joyini almashtirib qo‘yilgandek his qilishadi. Natijada, ular juda qo‘rqib ketadi va muvozanatini yo‘qotib hushidan ketadi. Levon esa ertalab kelib, ularni yig‘ib, uyidan olib chiqib ketadi.

Bu hikoya insonning aql bilan har qanday muammoni hal qilishi mumkinligini ko‘rsatadi. Levon mushkul vaziyatga tushganida vahimaga tushmaydi, balki o‘ziga xos ijodkorlik bilan sichqonlarni yengish yo‘lini topadi.

### **Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilar uchun tarbiyaviy ahamiyati**

1. Muammolarni aql bilan hal qilish - Hikoya bolalarga shuni o‘rgatadiki, har qanday qiyinchilikni kuch bilan emas, balki aql va topqirlik bilan hal qilish mumkin.

Levon zichqonlarni yo‘q qilish uchun kuch ishlatalish o‘rniga, ularning ongiga ta’sir qilish yo‘lini tanlaydi. Bu esa bolalar uchun saboq bo‘lishi mumkin.

2. Sabr va mulohazakorlik - Levon vaziyatdan sabr bilan chiqish yo‘lini izlaydi va harakat qilishdan oldin reja tuzadi.

Bu o‘quvchilarga har qanday muammoni shoshmasdan va yaxshilab o‘ylab hal qilish lozimligini o‘rgatadi.

3. Ijodiy fikrlash va tasavvur dunyosini rivojlantirish - Asar o‘quvchilarning ijodiy fikrlashini rag‘batlantiradi. Chunki Levon an’anaviy usullardan farqli, noodatiy yechimni tanlaydi.

Bolalar ushbu hikoyadan ilhom olib, hayotdagi muammolarni hal qilish uchun o‘ziga xos usullarni o‘ylab topishga harakat qilishlari mumkin.



4. Tabiat va hayvonlarga mehr bilan munosabatda bo‘lish - Levon sichqonlarni o‘ldirish o‘rniga, ularni shunchaki qo‘rqitib, hushidan ketkazadi va keyin uyidan olib chiqib ketadi.

Bu bolalarda hayvonlarga nisbatan shafqat va mehr-oqibat hissini rivojlantiradi.

5. Hamma narsaga tanqidiy yondashish - Sichqonlar shiftga yopishtirilgan narsalarni ko‘rib, avvaliga kulishadi, keyin esa hayratdan shokka tushadilar.

Bu bolalarga har qanday vaziyatni chuqur tahlil qilish va yuzaki fikrlashdan qochish kerakligini o‘rgatadi.

6. Dunyoqarashni kengaytirish - Asar bolalarni noodatiy va o‘ziga xos tafakkurga yo‘naltiradi. Levonning sichqonlardan qutulish usuli an’anaviy fikrlash doirasidan tashqarida.

Bu bolalarni cheklangan fikrlashdan chiqib, har bir vaziyatga yangicha yondashishga o‘rgatadi.

“Oyog‘i osmondan bo‘lgan sichqonlar” hikoyasi boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun nafaqat qiziqarli, balki tarbiyaviy ahamiyatga ham ega. U bolalarga zukkolik, ijodkorlik, muammolarni aql bilan hal qilish, sabr va hayvonlarga mehr bilan munosabatda bo‘lish kabi fazilatlarni o‘rgatadi. Shu bilan birga, hikoya bolalarning tasavvur dunyosini kengaytirib, ularni hayotiy masalalarga yangicha yondashishga ilhomlantiradi.

**Janni Rodari** (1920–1980) – XX asrning eng mashhur bolalar yozuvchilaridan biri bo‘lib, uning ijodi butun dunyoda katta e’tirofga sazovor bo‘lgan. U Italiyada tug‘ilgan va dastlab o‘qituvchi sifatida ishlagan. Keyinchalik jurnalistika va adabiyotga qiziqib, bolalar uchun ertak va hikoyalari yozishga kirishgan. Uning ijodi bolalar uchun nafaqat qiziqarli, balki ma’naviy va tarbiyaviy ahamiyatga ham ega.

Rodari o‘z asarlarida bolalar tasavvurini rivojlantirishga, ularni haqiqatni anglashga vaadolat uchun kurashishga undaydi. U o‘z hikoyalari va ertaklarida ko‘pincha fantastik va hajviy usullardan foydalangan. 1970-yilda bolalar adabiyotiga qo‘sishgan ulkan hissasi uchun Xans Kristian Andersen mukofoti bilan taqdirlangan. Bu mukofot bolalar adabiyotidagi eng nufuzli mukofotlardan biri hisoblanadi.



Janni Rodarining eng mashhur asarlaridan biri "Chipollinoning sarguzashtlari" bo'lib, unda kichik piyozcha Chipollino zulmga qarshi kurashadi. Bu asar orqali muallif bolalargaadolat, do'stlik va jasoratning muhimligini tushuntiradi. "Jelsamino yolg'onchilar mamlakatida" ertagi esa yolg'on va haqiqat o'rtasidagi qaramaqarshilikni yoritib, bolalarni haqiqatparvarlikka o'rgatadi. Uning "Telefon ertaklari" asari bolalar uchun qisqa, qiziqarli va mantiqiy xulosalarga boy hikoyalardan iborat.

Rodarining ijodi bolalar ongini o'stirishga, ularni ijodiy fikrlashga va jamiyatga foydali inson bo'lib yetishishiga xizmat qiladi. U bolalar adabiyotida yangi yo'nalish yaratgan va bugungi kunda ham uning asarlari yosh kitobxonlar tomonidan sevib o'qiladi. Uning har bir asari bolalar qalbida mehr-oqibat, mehnatsevarlik va haqiqatga bo'lgan intilishni shakllantirishga yordam beradi

Janni Rodarining "**Hunarning hidi qanaqa?**" she'ri mehnatsevarlik va kasb-hunarga bo'lgan hurmatni tarbiyalashga qaratilgan badiiy asardir. Muallif ushbu she'r orqali turli hunarlarning o'ziga xosligini tasvirlab, bolalarni mehnat qilishga undaydi.

She'r har bir kasbning o'ziga xos hidi borligini ta'kidlab boshlanadi. Masalan, novvoyning isidan xamirturush hidi keladi, duradgor ustaxonasidan yangi yog'och va taxta hidi tarqaladi. Bo'yoqchilardan turli bo'yoqlarning isi anqisa, shifokorlarning xalatidan dorilar hidi keladi. Dehqon dalada mehnat qilarkan, undan tuproq va o'tloq hidi keladi. Baliqchining kiyimidan esa dengiz hidi seziladi. Bu misollar orqali muallif mehnatning har bir sohasini qadrlash lozimligini ko'rsatadi.

She'rning eng muhim jihat shundaki, muallif bekorchilar hidga ega emasligini ta'kidlaydi. Ishyoqmaslar qanchalik ko'p atir sepmasin, ularning hidi hech kimga yoqmaydi. Bu orqali Rodari bolalarga "mehnatsiz inson jamiyatga foya keltira olmaydi" degan tushunchani singdiradi.

Ushbu she'rning badiiy xususiyatlari shundaki, unda realistik tasvir vositalari, jonli va tasirchan ifodalar ishlatilgan. She'r bolalarning tasavvurini boyitib, ularni turli hunar va kasblarga qiziqtiradi. She'rning qofiyalanishi va oson yodda qoladigan ifodalar uning ta'sirchanligini oshiradi.



Tarbiyaviy jihatdan esa, she'r bolalarni mehnatsevarlikka o'rgatadi, kasb-hunarning qadrini tushuntiradi va dangasalikning salbiy oqibatlarini ko'rsatadi. Har qanday hunarning inson hayotida muhim o'rin tutishi ta'kidlanadi.

Umuman olganda, "Hunarning hidi qanaqa?" she'ri mehnatni ulug'lash, kasbga hurmat bilan qarash va dangasalikdan yiroq bo'lish g'oyalarini singdiruvchi, bolalar tarbiyasida muhim o'rin tutadigan badiiy asardir.

**Lev Nikolayevich Tolstoy** 1828-yil 9-sentabrda Rossiyaning Yasnaya Polyana qishlog'ida dvoryan oilasida tug'ilgan. U yoshligidan kitob o'qishga qiziqqan va adabiyotga bo'lgan muhabbati erta shakllangan. Tolstoy Moskva va Qozon universitetlarida tahsil olgan, ammo o'qishni oxiriga yetkazmay, harbiy xizmatga kirgan.

Uning hayotining muhim jihatlaridan biri xalq ta'limiga bo'lgan e'tibori bo'ldi. 1859-yilda Yasnaya Polyana qishlog'ida bepul mакtab ochdi va bolalar ta'limi bo'yicha tajribalar o'tkazdi. Maktabda bolalar erkin o'qishi, o'z qiziqishlari asosida bilim olishi mumkin edi. Tolstoy bolalarni zo'r lab o'qitish tarafdori emasdi, balki ularning tabiiy qiziqishini qo'llab-quvvatlashni muhim deb bilardi.

U umrining oxiriga qadar adabiyot va pedagogika bilan shug'ullandi, inson va jamiyat haqidagi falsafiy qarashlarini shakllantirdi. 1910-yilda, 82 yoshida vafot etdi.

Tolstoyning ijodi juda keng qamrovli bo'lib, romanlar, hikoyalar, falsafiy asarlar va bolalar uchun yozilgan qissalarni o'z ichiga oladi. U bolalar ta'limiga katta ahamiyat bergani uchun yosh o'quvchilar uchun ham ko'plab asarlar yaratgan.

Bolalar uchun yozgan asarlari:

**"Filippok"** – Mustaqillik va bilimga intilish haqida hikoya.

**"Ikki do'st"** – Do'stlik va sadoqatning muhimligi haqida.

**"Bo'ri va it"** – Ozodlik va qaramlik haqidagi ibratli hikoya.

**"Qoramol"** – Hayvonlarga mehr-muhabbatni targ'ib qiluvchi asar.

**"Uch ayiq"** – Mashhur ertak bo'lib, bolalarni ehtirotkorlikka o'rgatadi.

Tolstoyning bolalar uchun yozgan hikoyalari yoshlarga halollik, mehnatsevarlik, mehr-oqibat va insoniylikni o'rgatishga qaratilgan. Uning pedagogik



qarashlari bugungi kunda ham ahamiyatini yo‘qotmagan bo‘lib, ta’lim sohasida ilg‘or g‘oyalar sifatida qadrlanadi.

Lev Tolstoyning "Filippok" hikoyasi kichik bolalarning bilim olishga bo‘lgan ishtiyoqi, qat’iyati va mustaqillikka intilishini aks ettiradi. Asarda bosh qahramon Filippok kattalar tomonidan maktabga borishiga ruxsat berilmasa ham, o‘z orzusiga erishish uchun mustaqil ravishda harakat qiladi. Hikoya sodda, tushunarli va hayotiy tasvirlar bilan boyitilgan bo‘lib, unda bolaning ichki kechinmalari, qo‘rquvi va umidlari aniq ifodalangan.

Asarning asosiy g‘oyasi – bilimga intilish va o‘qishning ahamiyati. Tolstoy Filippok obrazida har bir bolaning o‘qishga bo‘lgan tabiiy qiziqishi va bilim olishga intilish jarayonini ko‘rsatadi. Muallif bolalarning orzu va qiziqishlarini e’tiborga olish kerakligini ta’kidlaydi.

Hikoya tarbiyaviy jihatdan katta ahamiyatga ega, chunki u bolalarga quyidagi fazilatlarni singdiradi:

Mustaqillik – Filippok maktabga borish uchun o‘z tashabbusi bilan harakat qiladi.

Qat’iyat – U qiyinchiliklardan qo‘rmaydi va o‘z maqsadiga intiladi.

Mehnatsevarlik va bilimga chanqoqlik – Ta’lim olish inson hayotida muhim o‘rin tutishini anglatadi.

Jasorat va o‘ziga ishonch – Filippok maktabga kirmoqchi bo‘lganida ustozining savollariga javob bera olishi uchun o‘z bilimiga ishonishi kerak.

Badiiy jihatdan hikoya soddaligi va tabiiyligi bilan ajralib turadi. Unda ortiqcha bezakli tasvirlardan ko‘ra, bolaning ruhiy holati, uning istaklari va harakatlari realistik uslubda berilgan. Dialoglar, tasviriy vositalar va real voqealar orqali asar bolalar hayotiga juda yaqin.

Umuman olganda, "Filippok" hikoyasi bolalarni bilim olishga rag‘batlantirish, mustaqil qaror qabul qilish, mehnatsevar va qat’iyatli bo‘lishga o‘rgatish kabi tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lib, bugungi kunda ham dolzarb sanaladi.

## Xulosa



Uchinchi sinf o‘qish savodxonligi darsliklarida jahon adabiyotining turli namunalarining kiritilishi o‘quvchilarning adabiyotga qiziqishini oshirish va dunyoqarashini kengaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada Roald Dal, Janni Rodari va Lev Tolstoy ijodiga e’tibor qaratildi hamda ularning bolalar uchun yozgan mashhur asarlari tarbiyaviy jihatdan tahlil qilindi.

Roald Dalning "Oyog‘i osmondan bo‘lgan sichqonlar" hikoyasi bolalarga zukkolik, ijodkorlik va muammolarni aql bilan hal qilish muhimligini o‘rgatadi. Levon ismli qariyaning topqirligi va noodatiy fikrlash usuli orqali bolalar muammolarga innovatsion yondashish sabog‘ini oladilar. Shuningdek, hayvonlarga mehr bilan munosabatda bo‘lish, sabr va mulohazakorlik kabi fazilatlar ham targ‘ib etiladi.

Janni Rodarining "Hunarning hidi qanaqa?" she’ri esa bolalarda mehnatsevarlik va kasb-hunarga bo‘lgan hurmatni shakllantiradi. Muallif turli kasblarning o‘ziga xosligini ta’kidlab, dangasalikning salbiy oqibatlarini ochib beradi. Bu esa o‘quvchilarni kelajakda jamiyatga foydali inson bo‘lishga undaydi.

Lev Tolstoyning "Filippok" hikoyasi esa bolalarning bilimga chanqoqligi, qat’iyat va mustaqillik fazilatlarini shakllantirishga qaratilgan. Asar orqali bolalar mustaqil harakat qilish, o‘qishning ahamiyatini anglash va bilim olishga bo‘lgan qiziqishning qadrlanishi haqida tushunchaga ega bo‘ladilar.

Umuman olganda, jahon adabiyotining mazkur namunalarini boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga taqdim etish ularning fikrlash doirasini kengaytiradi, ijodiy tafakkurini rivojlaniradi hamda hayotiy saboqlar beradi. Ushbu asarlar o‘quvchilarniadolat, do’stlik, mehnatsevarlik, zukkolik va halollik kabi muhim insoniy fazilatlarni egallashga yo‘naltiradi. Shu sababli, bu kabi asarlarni boshlang‘ich ta’lim dasturiga kiritish nafaqat o‘quvchilarning adabiyotga qiziqishini oshirish, balki ularning tarbiyaviy rivojlanishiga ham ijobiyligi ta’sir ko‘rsatadi.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. M.E.Tirova .3-sinf o‘qish savodxonligi 1-qism kitobi.Toshkent-2023.Novda nashriyoti.



2. Yo'ldoshev,M.Ta'lism jarayonida adabiy o'qishning o'rni va ahamiyati. Toshkent:O'zFA nashriyoti.
3. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi. (2021). O'qish savodxonligi darsligi (3-sinf). Toshkent: Ma'naviyat nashriyoti.
4. Karimov, A. (2020). Boshlang'ich sinflarda adabiy ta'lim. Toshkent: O'qituvchi.
5. G'afurova, D. (2018). Bolalar adabiyoti va uni o'qitish metodikasi. Toshkent: Fan va texnologiya.
6. G'afurova, D. (2018). Bolalar adabiyoti va uni o'qitish metodikasi. Toshkent: Fan va texnologiya.
7. Qodirov,A.(2015).Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini shakllantirish metodikasi.Toshkent:Fan.
8. Tolstoy, L. N. (1872). Filippok. Moskva: Detgiz.
9. The British Book Awards. (1990). Best Children's Author of the Year – Roald Dahl.
10. ↑ "Roald Dahl British author". *Encyclopædia Britannica*. Qaraldi: 2022-03-02.

Internet manbalari:

[www.roalddahl.com](http://www.roalddahl.com)

[www.unesco.org](http://www.unesco.org)

[www.uzlit.uz](http://www.uzlit.uz)

[www.ziyo.uz](http://www.ziyo.uz)

[www.wikipediya.uz](http://www.wikipediya.uz)